AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

AL-BUKHARI

Scientific journal

Amir Temur tavalludining 690-yilligiga bag‘ishlangan maxsus son

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

ISSN: 3030-3273

AL-BUKHARI

Scientific journal



ORIENTAL UNIVERSITETI

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

(Amir Temur tavalludining 690 yilligiga bag‘ishlangan maxsus son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qaroriga muvofiq tarix va filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga “Al-Buxoriy” ilmiy jurnali kiritilgan.

Toshkent – 2026

Bosh muharrir:

Farhod Maksudov, tarix fanlari doktori (DSc)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Malika Nasirova, filologiya fanlari nomzodi, professor

Mas’ul muharrir:

Govhar Rahmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“Al-Buxoriy”

ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

1. Azamat Ziyo	**t.f.d., akademik, professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
2. Zohidjon Islomov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
3. Shorustam Shomusarov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
4. Durdona Lutfullayeva	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
5. Komiljon Rahimov	**t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
6. Shamsiddin Kamoliddinov	**t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
7. Xolida Alimova	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
8. Aftondil Erkinov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
9. Albert Burxanov	**t.f.d., akademik (Tatariston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
10. Samal Tuleubaeva	**f.f.d., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
11. Sayfullo Mullodjanov	**t.f.d., professor (Tojikiston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
12. Zilola Xudoyberganova	**f.f.d., professor (Turkiya) – tahrir hay’ati a’zosi;**
13. Akram Habibullayev	**t.f.d., professor (AQSh) – tahrir hay’ati a’zosi;**
14. Ashirbek Mo‘minov	**t.f.d., dotsent (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
15. Murtazo Saidumarov	**f.f.n., professor (Saudiya Arabistoni) – tahrir hay’ati a’zosi.**

MUNDARIJA

Ahmadali Asqarov
Amir Temur buyuk sarkarda va daho davlat arbobi 4
Hojiakbar Hamidov
Amir Temur va Temuriylar davri san’ati namoyandalari tarixidan 13
Hamroyeva Orzigul Jalolovna
Temuriylar davridagi ilmiy-adabiy jarayon manbalari 24
Qo‘ldashev Sherali Temuralievich
Qo‘qon xonligi yozma manbalarida Amir Temur va Temuriylar tarixi yoritilishi 33
Ismatullayev Farxodjon Odiljonovich
Amir Temur tashqi siyosati va xalqaro munosabatlarda strategik yondashuv 43
Mamataxunov Nozim Azizovich
Amir Temur va Temuriylar davrida Xitoy bilan olib borilgan aloqalar 53
Bobojonov Islombek Usmonaliyevich
Amir Temur davrida Mamluklar sultonligi bilan olib borilgan aloqalar 61
Djurayev Ikrom Nematovich, Xurramova Sevinch Jamshid qizi
Amir Temur davlati uning ijtimoiy - iqtisodiy, madaniy hayoti 70
Xasanova Mashxura Jumanovna
Qasidalarda Temuriylar madhi 77
Qo‘chqarov Temurbek Baxromjon o‘g‘li
Temuriylar davrida Eronning geosiyosiy o‘rni 86
Sherzod Jo‘rayev Norovich
Temuriylar davri Hirot tarixchilik maktabi 95
Isakov Abdulahad Abdulvahobovich
Amir Temurning Yevropa hukmdorlari o‘rtasidagi elchilik munosabatlari, ayniqsa til va tarjimonlik masalalaridagi diplomatik munosabatlari 107
Ismatullayeva Zebo Shukurjonovna
Temuriylar davlatida xalqaro diplomatiya va pochta tizimining o‘rni 120
Bo‘riyev Islom Sobir o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek va Muhammad Xorazmiyning “yetti iqlim” nazariyasiga doir qarashlari qiyosiy tahlili 129
Yunusov Komiljon Alimdjanovich
Temuriylar tarixi davlat muzeyi ekspozitsiyasida qo‘lyozmalarni namoyish etish imkoniyati va ahamiyati 137
Sattorov Ulug‘bek Abdurazzoq o‘g‘li
Mustaqillik yillarida Amir Temur va Temuriylar merosi tiklanishida YUNESKOning o‘rni 148
Abdullayeva Gulandom Anvarovna
Robiya Sulton-Begim va Temuriylar saroyida ayollarning tarixiy o‘rni 157
Po‘latov Otabek Orifjon o‘g‘li
Temuriylar davrida hunarmandchilik tarmoqlari rivoji 163

QO‘QON XONLIGI YOZMA MANBALARIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TARIXI YORITILISHI
HE DEPICTION OF THE HISTORY OF AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS IN THE WRITTEN SOURCES OF THE KOKAND KHANATE
ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИИ АМИРА ТЕМУРА И ТЕМУРИДОВ В ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА

Qo‘ldashev Sherali Temuralievich
Oriental universiteti v.b. professori, tarix fanlari doktori
Tel.:+998909268360
E-mail:sherali.kuldashev@gmail.com.

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Amir Temur va temuriylar tarixiga oid ma’lumotlar Qo‘qon xonligi (1709-1876) qo‘lyozma asarlarida yozilishi haqida berilgan. Qirqqa yaqin turkiy, forsiy tillardagi manbalarda Amir Temur shaxsiy, temuriylar davriga oid ma’lumotlar, Oltin Beshik afsonasi haqida tahlil qilingan. Asarning Amir Temur va temuriylar davri tarixiga tegishli ma’lumotlar Sharofiddin Ali Yazdiyning (vafoti 1454) “Zafarnoma”, Muhammad bin Xovandshohning (1438-1498) “Ravzat us-safo”, 1552-yilda yozilgan Mavlono Ahmad ibn Muhammad al-G‘afforiyning “Tarixi Nigoriston”, Mirzo Muhammad Haydarning (1500-1551) “Tarixi Rashidiy”, Xondamirning (1475-1536) “Habib us-siyar” kabi o‘nlab asarlardagi ma’lumotlardan foydalanilganligi berilgan.

Kalit so‘zlar: *Amir Temur, temuriylar, Qo‘qon xonligi, Oltin Beshik, manba, qo‘lyozma asarlar, ilmiy tahlil, xulosa.*

Annotation. This article presents information on the history of Amir Timur and the Timurids written in manuscripts of the Kokand Khanate (1709-1876). About forty sources in Turkic and Persian languages are analyzed, including information about Amir Timur personally, the Timurid period, and the legend of the Golden Cradle. It is noted that the information on the history of Amir Timur and the Timurid period in the work is based on information from dozens of works, such as Sharafiddin Ali Yazdi’s (d. 1454) "Zafarnoma", Muhammad bin Khovandshah’s (1438-1498) "Rawzat us-safa", Mawlana Ahmad ibn Muhammad al-Gaffari’s "Tarihi Nigoristan" written in 1552, Mirzo Muhammad Haydar’s (1500-1551) "Tarihi Rashidi", and Khandamir’s (1475-1536) "Habib us-siyar".

Key words: *Amir Temuri, Timurids, Kokan Khanate, Oltin Beshik, source, manuscript works, scientific analysis, conclusion.*

Аннотация. В данной статье представлена информация об истории Амира Тимура и Тимуридов, записанная в рукописях Кокандского ханства (1709–1876). Проанализировано около сорока источников на тюркских и персидских языках, включая информацию о личном Амире Тимуре, периоде

правления Тимуридов и легенде о Золотой колыбели. Отмечается, что сведения об истории Амира Тимура и периода Тимуридов в работе основаны на сведениях из десятков произведений, таких как «Зафарнома» Шарафиддина Али Язди (ум. 1454), «Равзат ус-сафа» Мухаммада бин Ховандшаха (1438-1498), «Тарихи Нигористан» Мауляны Ахмада ибн Мухаммада аль-Гаффари. написанные в 1552 году, «Тарихи Рашиди» Мирзо Мухаммада Хайдара (1500-1551) и «Хабиб ус-сияр» Хандамира (1475-1536).

Ключевые слова: *Амир Темур, Тимуриды, Коканское ханство, Алтин Бешик, источник, рукописные произведения, научный анализ, заключение.*

KIRISH

Amir Temur va temuriylar tarixiga oid ma’lumotlar nafaqat o‘z davriga tegishli birlamchi manbalar bilan birga, undan keyingi avlodlar tomonidan yozilgan asarlarda ham uchraydi. Jumladan, Qo‘qon xonligi (1709-1876) tarixiga oid bo‘lgan qo‘lyozma asarlarda ham Amir Temur shaxsi, faoliyati, janglari, ma’muriy boshqaruv tizimi, harbiy mahorati va tajribasi, qo‘shni davlatlar bilan olib borgan munosabatlari, bunyodkorlik ishlari kabi masalalarga oid ko‘plab qiziqarli ma’lumotlar uchraydi. Qo‘qon xonligi markaziy qismi bo‘lgan Farg‘ona vodiysida tarixnavislik an’analarining shakllanishi XVIII asrning ikkinchi yarmida, aniqrog‘i Norbo‘tabiy (1763-1798) va Olimxon (1798-1810) hukmronligi davridan boshlansa-da, Amir Umarxon (1810-1822) hukmronligi davridan boshlab ancha keng tus oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Qo‘qon xonligida yaratilgan tarixiy manbalarning aksariyati musulmon tarixnavisligi an’analariga ko‘ra, Muhammad payg‘ambar (s.a.v)ga na’t bilan boshlanib, ba’zilari muallif yashagan zamondan, ba’zilari esa Qo‘qon xonligining vujudga kelishi tarixiga oid bo‘lgan rivoyatlar (Masalan, Oltin Beshik afsonasi) hamda aniq tarixiy shaxslar faoliyati bilan bog‘langan holda boshlanganligini ko‘rish mumkin. Xronologik jihatdan bu manbalarni uch guruhga ajratish mumkin: XIX asr boshlarida yozilgan qo‘lyozma asarlar, XIX o‘rtalarida bitilgan manbalar hamda mustamlakachilik davrida yozilgan asarlarga ajratish mumkin. Xonliklar davrida yozilgan 20 dan ortiq, Qo‘qon xonligi tugatilgandan so‘ng esa uning tarixiga bag‘ishlangan 10 dan ortiq asarlar yozilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot, bevosita qiyosiy tahlil va analiz metodlari asosida mavzuga oid ilmiy asarlar va tarixiy hujjatlarni o‘rganish asosida tadqiq qilindi. Manbashunoslik nuqtayi nazardan qiyosiy tahlil qilish va germanivtika usullari

ham qo‘llanildi. Adabiy jarayonlarga nisbatan tarixiy faktaloglik masalalarga kamroq e’tibor qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xonlik manbalari turkiy va forsiy tillarda bitilgan bo‘lib, ularning aksariyati Amir Temur va temuriylar davri bilan boshlangan. Bu manbalarda Amir Temur nomi Temur (تيمور), Temurxon Kurogon (تمورخان گوەگان), Mir Asad (مير اسد) shaklida kelgan bo‘lib, deyarli barcha manbalarda yozilgan. Temuriy hukmdorlardan Mirzo Ulug‘bek (ميرزا اولوغبيك) nomi “Tarixi jadidai Toshkand” asarida (Muhammad Solihxo‘ja Toshkandiy, 689a, 704б в), “Ansob us-salotin va tavorihi havoqin”da esa bir marta (Mirzoolim Mushrif., 1995:4) keltirilgan. Temuriy hukmdorlardan biri Zahiriddin Muhammad Boburning nomi ham bu manbalarda ko‘p uchraydigan ismlardan biridir. Uning nomi deyarli barcha manbalarda Bobur (بابور), Bobir (بابر), xon (خان), “Tarixi Aziziy” va “Tarixi jahonnoma”larda Mirzo (ميرزا), shoh (شاه), “Mirat al-futuh”da podshoh (پادشاه), “Shohnomai Umarxoniy”da sulton (سلتان), “Maktubchai xon”da Zahiriddin Muhammad Bobur (ظهيرالدين محمد بابر), va boshqa manbalarda Muhammad Zahiriddin (محمد ظهيرالدين), Mirzo Zahiriddin (ميرزا ظهيرالدين) nomlari bilan keltirilgan.

1801-yilda yozilgan Shermuhammad Akmal Ho‘qandiyning “Amirnoma” asarida Oltin Beshik afsonasi orqali Qo‘qon xoni Umarxonni shajarasini Zahiriddin Muhammad Boburga taqab yozgan. Fazliy Namangoniyning “Umarnoma” asarida ham “Dar bayoni nasl va avlodi Temurxon sohibqiron” (20a-b) qismida shu mavzuni davom ettiradi. Bu bilan muallif Qo‘qon xonlarini Amir Temurning avlodi ekanligiga urg‘u berib, buni alohida ta’kidlaydi. Fazliy o‘z asarida “Oltin Beshik” rivoyatini keltirmasa-da, u ham Qo‘qonning birinchi hukmdori Shohruxxon (1709-1721)ning shajarasini Boburga bog‘laydi. “Shohnomai Umarxoniy” asarida esa Umarxonning ham ota, ham ona tomonidan shajarasi berilgan (53b-54b). 1821-yilda yozilgan “Shohnomai nusratpoyom” asarini o‘rgangan Sh. Vohidov Oltin Beshik vositasida Qo‘qon xonlari nasabai Zahiriddin Muhammad Boburga bog‘lash xonlik tarixnavisligida birinchi bo‘lib, Mirzo Qalandar Mushrif Isfaragiyning ushbu asarida keltirgan va unda Umarxon nasabi Oltin Beshik orqali Boburga yetkazilgan (Vohidov Sh., 1998: 134). Biroq bu ma’lumotlar rivoyatlarga asoslangan.

Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid yana bir ma’lumotlar an’anaviy tarixiy manbalarni yozishdagi sulolaviy uslubda yozilishi jarayonida e’tibor qaratilganligi hisoblanadi. Sulolalarning davriy ketma-ketlikda yozilishida Amir Temur va temuriylar davriga oid ma’lumotlarni avvalgi tarixiy manbalardagi ma’lumotlarni qiyosiy tahlil qilib yozilgan yoki qanday bo‘lsa shunday holatda

ko‘chirilgan. Jumladan, 1844-yilda yozilgan Muhammad Hakimxonto‘raning “Muntahab ut-tavorix” (“Tarixiy yilnomalar”) asari 5 bob, 12 toifa, ya’ni sulolalar tarixiga ajratilgan holda yozilgan. Bu sulolalar safforiylar, somoniylar, daylamiylar, g‘aznaviylar, saljuqiylar, xorazmshohiylar, chingiziylardan so‘ng sakkizinchi toifa sifatida temuriylar va boburiylar, shayboniylar, ashtarxoniylar, mang‘itlar hamda minglar tarixi alohida qilib yozilgan (Muhammad Hakimxonto‘ra., 1844: 89-125-varaqlar). Avaz Muhammad Attorning “Tarixi jahonnoma” asarida esa, kirish qismidan so‘ng, Odam alayhissalom, Muhammad alayhissalom, islomgacha hukmronlik qilgan forslar, halifalar, ummaviylar, abbosiylar, tohiriylar, chingiziylardan so‘ng to‘qqizinchi bobi temuriylar bilan bir qatorda shayboniylar, safaviylar, boburiylar, yilnomalar, joniylar, Nodirshoh, mang‘itlar va Hindistondagi boburiy podshohlar tarixi hamda xulosa bilan tugatgan (Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiy., 1999: 582). Asarda Chingizxon avlodlaridan bo‘lgan Alnakxon va Toyzixonlarning Amir Temur huzuriga borgani, uning hizmatiga kirgan hamda Temur o‘limidan so‘ng bu chingiziylar Qoraqurumga, ya’ni qalmoqlar yurtiga ketganligi haqidagi ma’lumotlar berilgan. Xuddi shu kabi manbalardan biri Muhammad Solihning “Tarixi jadidai-Toshkand” asari bo‘lib, unda so‘zboshi, Odam alayhissalom, usmoniylar, chingiziylargacha hukm surgan Turkiston podshohlari, chingiziylardan so‘ng Amir Temur (95a-200a) va temuriylar (200b-201a), shayboniylar va ashtarxoniylar, Abulfayzxon va mang‘itlar, minglar, Toshkent tarixi, muallif tarjimayi holi kabi boblarga ajratilgan. Bu asarlardagi ma’lumotlar asosan Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Muhammad Hotifiyning “Temurnoma”, “Temur tuzuklari” va boshqa manbalardagi ma’lumotlar asosida yoritilgan.

Tojirning “G‘aroyibi sipoh” asarida “Farg‘ona shohlarining nasabi fasli”da Qo‘qon xonlarining nasabi bir necha vosita bilan Chingizxonga bog‘lanishini aytilsa-da, Zahiriddin Muhammad Bobur yoki Amir Temur hamda Temuriylar davri xususida so‘z yuritilmagan. Bu holatni muallifning o‘z oldiga qo‘ygan rejasi (faqatgina Olimxon, Umarxon va Muhammad Alixon davrini bayon qilish) va asar hajmidan kelib chiqqan holda ham baholashishmiz mumkin. Biroq asarda berilgan Qo‘qon xonlari xonlikdagi davlat boshqaruvi, ma’muriy tizim, davlat va hokimiyat idoralarining ishlash prinsiplari bevosita Amir Temur va temuriylar davlat boshqaruvining davomchisi hisoblanishini yozib o‘tgan. Ayniqsa, diplomatik aloqalarda bu o‘xshashlik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, Qo‘qon xoni Muhammad Alixon (1822-1842) Xitoyning hukmron sulolasi bo‘lmish manjurlarning imperatori Daogun (綿寧, 1820-1850)ga yozgan to‘rtta maktubi

Amir Temur va uning o‘g‘li Shohrux Mirzoning Xitoy imperatorlariga yozgan xatlari mazmuni bilan aynan bir xildir. Maktub shunday yozilgan edi:

“Mening ya’ni Muhammadalixon gardunmador qoshidan sen Chinning Bodoy hoqoni huzuriga. Bil va ogoh bo‘lginkim, mening nasabim tanma-tan Chingizxonga borib yetadi. Pushtma-pusht xon va xonzoda bo‘lib kelganman. Hudoga shukurkim, ajdodlarimdan musulmonman va hozirda bu mamlakat menga padarimdan meros qolgan. Endilikda davlat nag‘orasini mening adolat tomimda chalmoqdalar. Ibrat ko‘zini ochib, mening nimalar qilganimni ko‘r. To Qashqar mulkigacha borib g‘azot qildim. Ikkinchi bor xizmatkorim Haqquli mingboshiga amr qildim, borib g‘azot qilib, sizlarning kulingizni ko‘kka sovurib keldi. Bu tarafda to Istravshan, Yom va Zomin hamda Achchi suvigacha iotat kamarini mening egarim uzangisiga bog‘ladilar. Xudo xohlasa, jahonni Yaratuvchidan umidim tez kunlarda Rumdan to Xitoy mulkigacha farmonbardor qilsa.

Ey Chin hoqoni, uch ishdan birini tanlashing lozim. Biri Bojin (hozirgi Pekin shahri) ga olib ketgan o‘sha hojalarni bu tarafga yuborishing kerakkim, ular payg‘ambar avlodlaridir. Yana biri shuki, sening hukming ostidagi Yetti shahar (Hozirgi Shinjong-Uyg‘ur tumani) dagi musulmonlar hukumatini menga ber. Toki, biz o‘zimiz hokim tayinlab, shariati sharifga muvofiq boshqaramiz.Yana biri (17a) shuki, har yili bizga Bojindan o‘n ming yombu miqdorida boj berasan. Shu uchchalasidan biri ixtiyoring. Illo, shulardan birini tanlamasang tayyor bo‘l, qo‘shin tuzib borib, ul viloyatlarni to Qumbul tegrasigacha kulini ko‘kka sovurmasam Umarxonning o‘g‘li emasman. Elchining og‘zidan bayon qilingan har bir so‘z to‘g‘ridir” (Tojir., 2014:456). Muhammad Alixon manjur imperatorida ular talab qilgan narsalarni talab qilish bilan garchi, Chingizxon avlodi deb tilgan olinsa-da, o‘zini Amir Temur ishining davomchisi, izdoshi ekanligini ko‘rsatishga harakat qilgan (Sultonov., 2010:73). Shuningdek, Muhammad Alixon buyrug‘i bilan “Temur tuzuklari” asarining fors tilidan turkiy tilga tarjima qilinganligini yuqoridagi faktlarning isboti sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Abdulg‘afforboyning “Zafarnomayi Xudoyorxoniy” asarida Qo‘qon xoni Xudoyorxonning nasabini turkiy qabilalarning ilk ajdodi bo‘lgan bo‘ri bilan bog‘laydi. U keltirgan nasabnomada Xudoyorxon nasabi asli ajdodlari bo‘ri bo‘lgan Oltin Beshik orqali Boburga va u orqali Amir Temurga yetkazilgan (Abdulg‘ofur., 6b-varaq).

Mirzo Olim Mirzarahim Toshkandiyning “Ansob al-salotin va tavorix al-xavoqin” asarida Amir Temur ismi ikki marta uchraydi. Dastlab Qo‘qon xoni Xudoyorxonning shajarasi Mirzo Boburga va undan Amir Temurga borib taqalishi (4b, 65a) haqida ma’lumot bergan.

Muhammad Aziz Muhammad Rizo o‘g‘li Marg‘iloniyning “Tarixi Aziziy” asarining katta qismi Qo‘qon xonligi tarixiga bag‘ishlangan. “Tarixi Aziziy” asarining ham yagona nusxasi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondidan saqlanadi. Asarning to‘rtinchi va beshinchi boblarida Qo‘qon xonligi davrida va xonlikning tugatilgandan keyingi yillardagi Farg‘ona tarixiga oid ma’lumotlar o‘rin olgan. Asarning so‘nggi ikki bobi muallifning o‘zi yashagan davriga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bayon qilingan voqealarga muallif shaxsan o‘zi guvoh bo‘lganligi, boshqa manbalarda uchramaydigan ma’lumotlar, ishonchli odamlardan eshitgan axborotlar jamlanganligi bilan ajralib turadi. Asar tadqiqotlarda muayyan qolipga solinmagan va ma’lum tizimga ega bo‘lmagan manba sifatida baholangan. Muallif aslida ham yaxlit tizimga ega mukammal tarix yaratishni maqsad qilmagan, balki tarixiy saylanma yaratishni ko‘zlagan. Buni muallifning “Tavorixi Nigoriston” dan intixob qildim (6a), Xotif (vaf 1842)ning forsiydan turkiyga o‘girgan “Tuzuki Temuriy” kitobidan “intixob etub ko‘tarildi” (55b) deb izoh bergan (Mulla Aziz Marg‘iloniy., 2016:13). Asarning Amir Temur va temuriylar davri tarixiga tegishli ma’lumotlar Sharofiddin Ali Yazdiyning (vafoti 1454) “Zafarnoma”, Muhammad bin Xovandshohning (1438-1498) “Ravzat us-safo”, 1552-yilda yozilgan Mavlono Ahmad ibn Muhammad al-G‘afforiyning “Tarixi Nigoriston”, Mirzo Muhammad Haydarning (1500-1551) “Tarixi Rashidiy”, Hondamirning (1475-1536) “Habib us-siyar” kabi o‘nlab asarlardagi ma’lumotlardan foydalanib yozgan. Asarning 2 bobi “Amir Temur Ko‘ragonning qilgan g‘azotlarini va iqbolu saodatlarini va tariqai shukuhi saltanatlarini va xurujini va kuch-quvvati va hukumatini miqdorining va ham valiahd bo‘lgan avlodlaridan bayon” deb nomlangan. Keyingi faslda “Tuzuki Temuriy”dan olingan parcha va “Zafarnoma”dan Amir Temurning Bag‘dod hukmdori Sulton Ahmad Jaloyir ustiga yurishi to‘g‘risidagi xabar havola etiladi. Asarning 85-faslida esa “Hazrat Xoja Ahmad Yassaviyning muborak mozorlari shariflarig‘a Amir Temurni vaqf tayin qilg‘oni bayoni” deb nomlangan (Muhammad Aziz Marg‘iloniy., 90b-91a varaqlar). Bu fasl forsiyda yozilgandir. “Ushbu vaqtda ham qadim zamonda yer yuzida qanday katta shaharlar bor” deb nomlangan 108 faslda Turkistondagi “hazrat Sulton al Orifin Xoja Ahmad Yassaviyning qabrlari ustida bino qilingan gumbazning yerdan balandligi qirq sakkiz gazdur”, deb ma’lumot beradi (Muhammad Aziz Marg‘iloniy., 105a-varaq). Mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning **“**Zafarnoma**”**sida ham bu ulug‘ voqea haqida quyidagilar yozilgan**: “**Uning gumbazini shunday bunyod etsinlarki**,** aylanasi yuz o‘ttiz gaz va o‘z chizig‘i qariyb qirq gaz kelsin**.** Qurilish tamom bo‘lgach**,** balandligi ham o‘ziga munosib tarzda ko‘tarilsin**,** devoru qubbasi koshinlar ila bezatilsin**,** eshigi yetti xil ma’dan qotishmasidan tayyorlansin**,**

o‘rtasida bir hovuz barpo etib**,** uning yuzini ham yetti ma’dan qotishmasidan qoplasinlar**.** Qabr ustiga qo‘yish uchun tabriziy marmar keltirsinlar**,** uni noziklik bilan tarashlasinlar va ajoyib naqshlar-la bezasinlar**”**. Ushbu an’anani davom ettirgan Qo‘qon xonlari Ahmad Yassaviy mozoriga alohida e’tibor qaratganlar. Jumladan, Toshkent hokimi Normuhammadga mozor vaqflari bo‘yicha topshiriqlar berilgan. Mozorni qayta ta’mirlashda Umarxon, Muhammad Alixon hamda Xudoyorxon tashabbusi bilan amalga oshirilgan.

Qo‘qon xonligidagi davlat boshqaruv apparati asosan Amir Temur davrida shakllangan va keyinchalik Shayboniylar davrida isloh qilingan an’analarga asoslangan. “Amir al-muslimin” va “Xon” kabi oliy unvonlar, shuningdek, davlat iyerarxiyasidagi vazirlik va devonbegilik lavozimlari Temuriylar davlatchilik maktabining merosi sifatida saqlanib qolgan. Olimxon kabi hukmdorlar o‘z faoliyatida Amir Temur davlatining chegaralarini tiklash va markazlashgan kuchli qo‘shin tuzishga alohida e’tibor qaratgan.

Amir Temur va Temuriylarning ilm-fan va adabiyotga homiylik qilish an’anasi Qo‘qonda Umarxon va Nodirabegim davrida o‘z cho‘qqisiga chiqdi. Qo‘qon adabiy muhiti o‘zini “Temuriylar Renessansi”ning ma’naviy davomchisi deb bilgan. Temuriylar sulolasi va hokimiyati (1370–1506) musulmon sharqining ko‘p mamlakatlari uchun namunaviy model sanalib, unga bir necha yuz yil mobaynida taqlid qilib kelingan. Ayni jarayonda Amir Temur shaxsiyati va so‘nggi temuriylardan bo‘lmish Husayn Boyqaro davridagi Hirot madaniy, adabiy muhitining o‘rni katta bo‘lgan (Erkinov., 2021:271-274).

Xonlik poytaxti Qo‘qonda qurilgan masjid va madrasalar, xususan Xudoyorxon o‘rdasining bezaklari va me’moriy yechimlarida Temuriylar davriga xos koshinkorlik va muhtashamlik an’analari qayta jonlantirilgan.

Amir Temurning lashkar tuzish, qismlarga bo‘lish va jang olib borish taktikalari Qo‘qon xonligi harbiy tizimining asosini tashkil etgan. Asosiy o‘xshashliklar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- Qo‘shin tuzilishi va taqsimoti: Amir Temur qo‘shinni o‘nlik, yuzlik, minglik va tuman (o‘n minglik)larga bo‘lib boshqargan. Qo‘qon xonligida ham ushbu tizim saqlanib qolgan bo‘lib, o‘nboshi, yuzboshi va mingboshi kabi unvonlar qo‘llanilgan.
- Lavozim va unvonlar taqlidi: Xonlikda, ayniqsa Umarxon davrida, Amir Temur va Sulton Husayn Boyqaro zamoniga taqlid qilgan holda unvonlar va davlat lavozimlari joriy etilgan.
- Jang taktikasi (Go‘l va Qanbul): Temuriylar harbiy san’atidagi markaz (go‘l), o‘ng va chap qanotlar hamda ularning pistirmalari (qanbul) kabi tartiblar

O‘rta Osiyo xonliklarida, shu jumladan Qo‘qonda ham asos sifatida qabul qilingan, garchi vaqt o‘tishi bilan ayrim o‘zgarishlarga uchragan bo‘lsa-da.

- Mafkuraviy maqsadlar: Xonlik hukmdorlari, xususan Olimxon, kuchli qo‘shin tuzish orqali Amir Temur davlatining chegaralarini tiklashga intilgan.
- Jangovar tayyorgarlik: Har ikki tizimda ham otliq qo‘shin asosiy kuch hisoblangan. Temur qo‘shinida bo‘lgani kabi, xonlikda ham tezkor harakatlanish va intizomga katta e’tibor berilgan.

Qo‘qon xonlari, xususan Abdurahimbiy (uni tarixchilar "Sohibqiron" deb atashgan) va Umarxon, qal’alar qurishda Temuriylarning shaharsozlik va mudofaa an’analariga taqlid qilishgan. Masalan, Qo‘qondagi dastlabki istehkom Eski-Qo‘rg‘on Amir Temur davridagi qal’alar kabi markaziy boshqaruv nuqtasi sifatida tiklangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qo‘qon xonligi tarixnavisligiga mansub manbalarda Amir Temur va temuriylar masalalarini yoritishga ikki xil munosabat yuzaga kelgan. Birinchidan, bu masalaga Sharqning islom mamlakatlari tarixnavisligi tamoyillari va qonuniyatlari asosidagi yondashuvlar. Bu masala musulmon mamlakatlarida hukm surgan sulolalar tarixining tarkibiy qismi sifatida davriy tartibot asosida yozilgan. Bu an’anada tarixiylik, mantiqiylik va haqqoniylik tamoyillari nisbatan ustun hisoblanadi. Albatta, ushbu o‘rinda temuriylar sulolalari tarixiga oid asosiy tarixiy qo‘lyozma asarlar – “Zafarnoma”, “Ravzat us safo”, “Habib us siyar”, “Boburnnoma” kabi asarlar muhim tarixiy manba vazifasini o‘tagan. Shuningdek, “Temur tuzuklari”, “Nigoriston” kabi asarlardagi ma’lumotlar asosida ham ko‘plab xonlik davri qo‘lyozma asarlarining asosi sifatida ko‘rish mumkin. Qo‘qon xonligi tarixnavisligiga mansub asarlarda temuriylar davrida yaratilgan tarixiy asarlar muhim manba bo‘lib xizmat qilgan.

Ikkinchidan, XIX asrning birinchi choragida shakllangan Qo‘qon tarixnavisligi an’analari va tamoyillari asosida yondashuvlar hisoblanadi. Bunda Amir Temur va temuriylarga (Zahiriddin Muhammad Bobur, Umarshayx mirzo) xonlik hukmdorlarining ajdodi sifatida qarash aksariyati saroyga yaqin kishilar bo‘lgan ushbu maktab vakillarida panegrizmning ustunlik qilishiga olib kelgan. Bu an’anada voqealar bayonidagi tarixiy jarayonlarning asosiy nuqtalari rivoyat asosida bayon qilingan. Natijada tarixiy shaxslar faoliyati va davri rivoyat zamirida o‘z tarixiyligi va mantiqiyligini yo‘qotgan.

Qo‘qon xonligi manbalarida Amir Temur shaxsiga ikki xil yondashuv mavjud bo‘lib, birinchidan, sarkarda Turonzamin va Dashti Qipchoqda hokimiyatni o‘z aqli va harbiy salohiyati bilan qo‘lga kiritgan hukmdor, tarixiy shaxs sifatida qaralgan bo‘lsa, ikkinchidan, Amir Temurga, Qo‘qon tarixnavisligi an’analaridan

chetga chiqolmagan holda, xonlarning ajdodi deya ta’riflanuvchi Zahiriddin Muhammad Boburning ajdodi sifatida baho bergan.

Amir Temurning shaxsi, davlatchilikda o‘z o‘rniga ega bo‘lganligi uchun uning avlodlari uning tarixiy merosiga ko‘proq murojaat qilgan. Uning davlat boshqaruvi, harbiy tajribasi, salohiyatidan ibrat olishga harakat qilgan. Qo‘qon xonlari taxtga egalik qilish huquqini aynan Amir Temurga olib borib taqash, taqlid qilishni merosxo‘r sifatida bilganlar. Bu davrda nafaqat Qo‘qon xoni Umarxon bilan qo‘shni Xiva xoni Muhammad Rahimxon (1806-1825) va Buxoro amiri Haydar (1800-1825) ham bu masalada taqlid qilib, she’riy aytishuvlar olib borishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulg‘ofur. Zafarnomayi Xudoyorxon. O‘zR FA SHI, qo‘lyozma № 598.
2. Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiy (1991). Tarixi jahonnamoyi / forschadan Sh. Vohidov tarjimasi // Sharq Yulduzi. – Toshkent, 1991. – № 8. – B. 119-137.
3. Бабаджанов Б.М (2010). Кокандское ханство: власть, политика, религия. Токио-Ташкент.
4. Бейсембиев Т (2009). Кокандская историография (исследование по источниковедению Средней Азии XVIII – XIX веков). Алматы.
5. Erkinov A (2021). Navoiyni anglash sari. Anqara.
6. Mirzoolim Mushrif, (1995). Ansob us – salotin va tavorix ul-havoqin / Nashrga tayorlovchi A. Matg‘oziev, M. Usmonova. Toshkent.
7. Muhammad Aziz Marg‘iloniy. Tarixi Aziziy // qo‘lyozma, O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondi. №11108-432 v.
8. Muhammad Hakimxonto‘ra. Muntahab ut-tavorih – qo‘lyozma. O‘zR FA SHI, inv № 594. – 445a-varaq.
9. Muhammad Solihxo‘ja Toshkandiy. Tarixi jadidayi Toshkand – O‘zR FA SHI, qo‘lyozma № 7791. –1040 v.
10. Mulla Aziz Marg‘iloniy (2016). Tarixi Aziziy. Faksimile nashr. Kirish va ko‘rsatkichlar tuzuvchi Iroda Qayumova. Toshkent.
11. Sultonov O‘, (2010). Qo‘qon xonligi tarixnavisligida Amir Temur va temuriylar mavzusining yoritilishi // Temuriylar davriga oid manbalar. To‘plam. – Toshkent., 2010. – B. 73.
12. Tojir (2014). G‘aroyib sipoh. Tarjimon va sharhlar muallifi O‘ktam Sultonov // Xrestomatiya. 3-tom. Toshkent.
13. Vohidov Sh (1998). XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Qo‘qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi.: Tarix fan. dokt. ... diss.

REFERENCES:

1. Abdulg‘ofur. Zafarnomayi Xudoyorxon. O‘zR FA SHI, qo‘lyozma № 598. (manuscript)

2. Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiy (1991). Tarixi jahonnamoyi / forschadan Sh. Vohidov tarjimasi // Sharq Yulduzi. – Toshkent, 1991. – № 8. – B. 119-137. (In Uzbek)

3. Babadjonov B.M. (2010). Qo‘qon xonligi: hokimiyat, siyosat, din. Tokio-Toshkent. (In Russian)

4. Beysembiyev T. (2009). Qo‘qon xonligi tarixshunosligi (XVIII–XIX asrlar O‘rta Osiyo manbashunosligi bo‘yicha tadqiqot). Almati. (In Russian)

5. Erkinov A. (2021). Navoiyni anglash sari. Anqara. (In Uzbek)

6. Mirzoolim Mushrif. (1995). Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin / Nashrga tayyorlovchilar A. Matg‘oziev, M. Usmonova. Toshkent. (In Persian)

7. Muhammad Aziz Marg‘iloniy. Tarixi Aziziy // qo‘lyozma, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondi. № 11108-432 v. (manuscript)

8. Muhammad Hakimxonto‘ra. Muntahab ut-tavorih – qo‘lyozma. O‘zR FA SHI, inv № 594. – 445a-varaq. (manuscript)

9. Muhammad Solihxo‘ja Toshkandiy. Tarixi jadidayi Toshkand – O‘zR FA SHI, qo‘lyozma № 7791. – 1040 v. (manuscript)

10. Mulla Aziz Marg‘iloniy (2016). Tarixi Aziziy. Faksimile nashr. Kirish va ko‘rsatkichlar tuzuvchi Iroda Qayumova. Toshkent. (In Uzbek)

11. Sultonov O‘. (2010). Qo‘qon xonligi tarixnavisligida Amir Temur va temuriylar mavzusining yoritilishi // Temuriylar davriga oid manbalar. To‘plam. – Toshkent, 2010. – B. 73. (In Uzbek)

12. Tojir (2014). G‘aroyib sipoh. Tarjimon va sharhlar muallifi O‘ktam Sultonov // Xrestomatiya. 3-tom. Toshkent. (In Uzbek)

13. Vohidov Sh. (1998). XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Qo‘qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi. Tarix fanlari doktori... diss. (In Uzbek)